| XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI.....                           | 297 |
| <b>Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi</b>                                                           |     |
| XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI .....                                                                                   | 302 |
| <b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR .....                                                            | 306 |
| <b>Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi</b>                                                                                                                       |     |
| IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH..... | 316 |
| <b>Xamidova S.Ya.</b>                                                                                                                                         |     |
| KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....                                                                               | 322 |
| <b>Ro'zieva Gulchexra O'sarovna</b>                                                                                                                           |     |
| NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O'TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....                                         | 328 |
| <b>Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna</b>                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI .....                                                                                                  | 333 |
| <b>Isomiddinova Xilola Xasan qizi</b>                                                                                                                         |     |
| ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ.....      | 338 |
| <b>Муниса Турдибаева</b>                                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                       | 350 |
| <b>Xamdamova Guljaxon Ablakulovna</b>                                                                                                                         |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                    | 357 |
| <b>Malikova Ug'iloy Abdurasul qizi</b>                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH VA CO <sub>2</sub> EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG'I (EKC) ASOSIDA TAHLIL .....                                       | 363 |
| <b>Choriyev Maxmayoqub</b>                                                                                                                                    |     |
| YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA "NAVOIYAZOT" AJ AMALIYOTI .....             | 368 |
| <b>Sayidova Shahlo Toshtemirovna</b>                                                                                                                          |     |
| BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....                                            | 373 |
| <b>Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich</b>                                                                                                                 |     |
| PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MODELİ .....                                                                                 | 381 |
| <b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>                                                                                                               |     |
| ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI.....                                                                         | 386 |
| <b>Qo'ldosheva Xolisa</b>                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                        | 393 |
| <b>Hakimov Nodir Nazarovich</b>                                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DRAYVER<br>TARMOQLARNING O'RNI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI ..... | 399 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

**Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich**



# SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DRAYVER TARMOQLARNING O'RNI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI



**Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,  
"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0001-1841-9075

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Surxondaryo viloyatining iqtisodiy salohiyati, drayver tarmoqlari hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali barqaror rivojlanishga erishish masalalari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) tarkibi, agrar sektorning ustuvorligi va logistika imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada Surxondaryo viloyatining quyosh energiyasi salohiyati hamda Sherobod quyosh fotoelektr stansiyasi misolida yashil energetikaga o'tishning iqtisodiy samaradorligi baholangan. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyat iqtisodiyoti 2025-yilda 106,6 foizlik o'sish sur'atini saqlab qolgan bo'lib, bunda xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligi asosiy drayver tarmoqlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqola yakunida hududni ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo, drayver tarmoqlar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar, quyosh energiyasi, agrar sektor, iqtisodiy boshqaruv, modernizatsiya.

**Abstract.** This scientific article provides a comprehensive analysis of the economic potential of the Surkhondaryo region, its driver sectors, and the prospects for achieving sustainable development through the implementation of green economy principles. The study examines the structure of the Gross Regional Product (GRP), the priority role of the agricultural sector, and the logistical opportunities of the region. In addition, the article evaluates the solar energy potential of Surkhondaryo and the economic efficiency of the transition to green energy using the example of the Sherabad solar photovoltaic power plant. Statistical analysis indicates that the regional economy maintained a growth rate of 106.6 percent in 2025, with the service sector and agriculture acting as the main economic drivers. The article concludes with scientifically grounded recommendations aimed at socio-economic modernization, attracting foreign investment, and ensuring environmental sustainability in the region.

**Key words:** Surkhondaryo, driver sectors, green economy, sustainable development, gross regional product, investments, solar energy, agricultural sector, economic management, modernization.

**Аннотация.** В данной научной статье проведён углублённый анализ экономического потенциала Сурхандарьинской области, драйверных отраслей и вопросов достижения устойчивого развития посредством внедрения принципов зелёной экономики. В ходе исследования изучены структура валового регионального продукта (ВРП), приоритетность аграрного сектора и логистические возможности региона. Кроме того, в статье оцениваются потенциал солнечной энергетики Сурхандарьи и экономическая эффективность перехода к зелёной энергетике на примере Шерабадской солнечной фотоэлектрической станции. Анализ статистических данных показывает, что экономика области в 2025 году сохранила темпы роста на уровне 106,6 %, при этом основными драйверами выступили сфера услуг и сельское хозяйство. В заключении статьи представлены научно обоснованные рекомендации по социально-экономической модернизации региона, привлечению иностранных инвестиций и обеспечению экологической устойчивости.

**Ключевые слова:** Сурхандарья, драйверные отрасли, зелёная экономика, устойчивое развитие, валовой региональный продукт, инвестиции, солнечная энергия, аграрный сектор, экономическое управление, модернизация.



## KIRISH

Zamonaviy dunyoda global iqtisodiy jarayonlar mintaqalarning barqaror rivojlanishiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqib, "drayver" tarmoqlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyati mamlakatimizning eng janubiy hududi sifatida nafaqat geografik, balki strategik va iqtisodiy jihatdan ham katta salohiyatga ega hisoblanadi.

Viloyatning Afg'oniston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradoshligi uni xalqaro transport va logistika markaziga aylantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, hududning qulay iqlimiy sharoitlari qishloq xo'jaligining noyob tarmoqlarini rivojlantirish hamda yashil energetika loyihalarini amalga oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali mintaqaning ichki resurslarini samarali safarbar etish, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ekologik muammolarning kuchayib borishi esa iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ekologik xavfsiz va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Surxondaryo viloyati misolida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda viloyat iqtisodiyotining hozirgi holati, drayver tarmoqlarning rivojlanish dinamikasi hamda yashil iqtisodiyotga o'tishning institutsional asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalari uzoq yillardan buyon iqtisodchi olimlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Nobel mukofoti sovrindorlari Robert Solow va Paul Romer o'zlarining iqtisodiy o'sish modellarida investitsiyalar hamda texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi drayver rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasida esa François Perrouxning "o'sish qutblari" konsepsiyasi drayver tarmoqlarni aniqlash va hududiy iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonlik olimlardan B. Berkinov, Sh. Mustafoqulov va boshqalar mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish hamda ularni klaster usulida rivojlantirish bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, Sh. Mustafoqulov mintaqaning investitsion jozibadorligini baholashda hududiy o'ziga xosliklarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Yashil iqtisodiyot yo'nalishida esa Ernst Ulrich von Weizsäcker hamda Jeffrey Sachs kabi olimlar resurs tejamkorligi va ekologik kapitalni saqlash barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini asoslab berganlar.

Surxondaryo viloyati iqtisodiyotini o'rganish bo'yicha M. Zaripova va B. Xo'jamqulov kabi tadqiqotchilar agrar sektor hamda investitsion dinamikani ekonometrik modellar asosida tahlil qilganlar. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar investitsiyalarning vaqt omiliga bog'liqligi va mintaqaviy drayverlarning makroiqtisodiy determinantlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Shunga qaramay, Surxondaryo viloyatida yashil iqtisodiyot tamoyillarini drayver tarmoqlar bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etish masalasi hali yetarli darajada yoritilmagan ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Surxondaryo viloyatining 2020–2025-yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda mintaqaning iqtisodiy holati yalpi hududiy mahsulot (YaHM) o'sishi, tarmoqlar kesimidagi ulushi va investitsion faollik ko'rsatkichlari orqali baholandi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida hududning energetika balansi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) salohiyati tahlil qilindi. SWOT-tahlil usuli yordamida Surxondaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda ehtimoliy xavf-xatarlari aniqlashtirildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida iqtisodiy-matematik usullar qo'llanilib, istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyatining real sektori tanlangan bo'lsa, predmeti sifatida mintaqaviy iqtisodiy boshqaruv va barqaror o'sish mexanizmlari belgilandi.



Statistik ma'lumotlarning ishonchliligi Fisher va Student mezonlari yordamida tekshirilib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanish tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mintaqada barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra, viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 66,2 trillion so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 106,6 foizga o'sdi. Mazkur ko'rsatkich respublika miqyosida viloyat iqtisodiy faolligining izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.

YaHM tarkibida eng katta ulush qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri kelib, u 48,7 foizni tashkil etmoqda. Bu esa viloyat iqtisodiyotida agrar sektor yetakchi o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi (36,7 foiz) hamda sanoat tarmoqlarining (6,8 foiz) ulushi ham bosqichma-bosqich ortib bormoqda.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining 2025-yilda 9,3 foizga oshgani mintaqada modernizatsiya va texnologik yangilanish jarayonlari jadallashayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda energetika yo'nalishlarida yangi loyihalarning amalga oshirilishi sanoat salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Investitsion faollik tahlili ham hudud iqtisodiyotida ijobiy dinamikani namoyon etadi. Xususan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. 2025-yilning birinchi choragida investitsiyalar o'sish sur'ati 120,6 foizni tashkil etdi. Ushbu investitsiyalarning asosiy qismi energetika, qurilish materiallari sanoati va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan.

Viloyatning geostrategik joylashuvi, tabiiy resurslari va transport-logistika imkoniyatlari iqtisodiyotning drayver tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xalqaro transport yo'laklari bilan bog'liq loyihalar hamda transchegaraviy savdo hajmining ortishi mintaqaning iqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2023-2025-yillar)<sup>1</sup>

| Ko'rsatkichlar                | 2023  | 2024  | 2025  |
|-------------------------------|-------|-------|-------|
| YaHM hajmi (trln so'm)        | 52.4  | 59.8  | 66.2  |
| YaHM o'sish sur'ati (%)       | 105.2 | 105.8 | 106.6 |
| Sanoat mahsulotlari hajmi (%) | 105.0 | 107.2 | 109.3 |
| Qishloq xo'jaligi (%)         | 106.4 | 104.5 | 103.8 |
| Xizmatlar sohasi (%)          | 103.0 | 112.5 | 114.1 |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, viloyat iqtisodiyotida xizmatlar va sanoat tarmoqlarining ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlari jadallashayotganidan hamda mintaqada yangi drayver yo'nalishlar shakllanayotganidan dalolat beradi.

Surxondaryo viloyati uchun yashil iqtisodiyotga o'tishning eng muhim yo'nalishlaridan biri qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish hisoblanadi. Hududda yil davomida quyoshli kunlar sonining 300 kundan ortiq bo'lishi quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish uchun qulay tabiiy sharoit yaratadi.

Hozirgi kunda Sherobod tumanida quvvati 457 MVt bo'lgan yirik quyosh fotoelektr stansiyasi loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha nafaqat mintaqaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qoplash, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, loyiha orqali yiliga katta hajmdagi zararli gazlarning atmosferaga chiqishi sezilarli darajada kamaytirilishi kutilmoqda.

Shuningdek, hududda kichik va mikro gidroelektrostansiyalar tarmog'ini kengaytirish bo'yicha ham izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Surxondaryo daryosi va mavjud kanallarda umumiy quvvati 183 MVt bo'lgan kichik gidroelektrostansiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu esa energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va hududning energetik xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotning yana bir muhim drayveri agrosanoat sohasida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liqdir. Viloyatda tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan maydonlar hajmi 2025-yilga kelib 25 foizga oshdi. Mazkur texnologiya suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini berib, suv taqchilligi sharoitida ham barqaror hosildorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Olingan natijalar Surxondaryo viloyati iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan transformatsiyalanayotganini tasdiqlaydi. Garchi qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'atlari sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslariga nisbatan biroz pastroq bo'lmoqda. Bu esa mintaqaning bosqichma-bosqich industrial-agrar modelga o'tayotganidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



Drayver tarmoqlar sifatida belgilangan logistika va energetika yo'nalishlarining rivojlanishi qo'shni Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. Xususan, Termiz Cargo Centre logistika markazi faoliyati mintaqaviy eksport hajmining 2025-yilda 86,2 foizga oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa Surxondaryoning xalqaro transport-logistika tizimidagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida iqtisodiy boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda kadrlar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, quyosh panellari va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mintaqada demografik o'sish sur'atlarining yuqoriligi ham iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi sonining 3 milliondan oshgani mehnat bozoridagi talabni kuchaytirib, yangi ish o'rinlarini yaratishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, yangi ish o'rinlarini aynan yashil iqtisodiyot, xizmatlar sohasi va innovatsion tarmoqlar hisobiga kengaytirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatining barqaror rivojlanishi ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Birinchidan, Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti barqaror o'sish trayektoriyasiga ega bo'lib, yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 6,6 foizni tashkil etmoqda. Bu esa hudud iqtisodiy faolligining izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, mintaqaning asosiy drayver tarmoqlari sifatida qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi hamda qayta tiklanuvchi energetika yo'nalishlari namoyon bo'lmoqda. Mazkur tarmoqlar iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va investitsion faollikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, xususan, Sherobod quyosh fotoelektr stansiyasi kabi yirik loyihalarni amalga oshirish mintaqaning energetik mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va uglerod chiqindilarini kamaytirishda ham ushbu loyihalarning ahamiyati katta.

To'rtinchidan, logistika salohiyatidan samarali foydalanish tashqi savdo aylanmasining sezilarli darajada oshishiga zamin yaratdi. Xususan, eksport hajmining 86,2 foizga ortgani Surxondaryoning xalqaro transport va savdo tizimidagi o'rni mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Agrosanoat klasterlarida yashil texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib sug'orish tizimlari va bioo'g'itlardan foydalanishni kengaytirish;
2. Mintaqada qayta tiklanuvchi energetika qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish;
3. Kichik biznes subyektlarining energiya samaradorligini oshirish maqsadida subsidiya va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;
4. Termiz shahrini Markaziy Osiyoning yirik logistika va savdo markazlaridan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha strategik loyihalarni davom ettirish.

Umuman olganda, mazkur chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish Surxondaryo viloyatining iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023-yildagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'plami. — Toshkent, 2024.
4. Mustafoqulov Sh. Mintaqa iqtisodiyotining investitsion jozibadorligi. — T.: Iqtisod-moliya, 2017.
5. Zaripova M. Hududiy iqtisodiy o'sish omillarining ekonometrik tahlili: Surxondaryo viloyati misolida. // ResearchGate, 2025.
6. Xo'jamqulov B. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi rivojlanishining istiqbollari. // CyberLeninka, 2024.



7. Jeffrey Sachs. The Age of Sustainable Development. – Columbia University Press, 2015.
8. Berkinov B.B. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – T.: Aloqachi, 2020.
9. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo raqamlarda statistik to'plami. – Termiz, 2023.
10. Robert Solow. A Contribution to the Theory of Economic Growth. // Quarterly Journal of Economics, 1956.
11. Ernst Ulrich von Weizsäcker. Factor Five: Transforming the Global Economy through 80% Improvements in Resource Productivity. – Earthscan, 2009.
12. [Review.uz](#). Surxondaryo viloyatining 2025-yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili. – 2026.
13. United Nations Development Programme. Investment Guide to Surkhandarya Region. – Tashkent, 2019.
14. [Stat.uz](#). Hududlar statistikasi: Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati. – 2026.
15. [Zenodo.org](#). Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti o'sishiga ta'sir etuvchi omillarning regression tahlili. – 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---